

Ona yurti - oltin beshiging

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqarib boshlagan

2005-yil 7-13 - noyabr N:45 (66534)

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» Hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jam'armasi.

SAHIFALARDA



TO'GARAGIMIZGA
NURXON NAFASOV KELADI

2

-BETDA



O'ZIMIZ ERTAK
YOZAMIZ

4

-BETDA



8

-BETDA

HAMMA O'QUVCHILARIMIZ GAZETXON

Bizning Toshkent Iqtisodiyot kollejimiz namunali kollejlardan biri hisoblanadi. Bu bilim maskanida buxgalteriya hisobi, bank ishi, moliya, xalqaro biznes yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda. Bilim olish bilan birga darsdan so'ng o'quvchilarimiz turli to'garaklarga ham qatnashadilar. Ularga buxgalteriya hisobi, audit, soliq tizimi, iqtisodiy tahlil fanlari bo'yicha mutaxassis o'qituvchilarimiz bilim beradilar.

Kollejimizni bitirgan o'quvchilarimizning ko'pchiligi shu kunlarda Toshkent Davlat Iqtisodiyoti universiteti va Moliya institutlarida o'qishni davom ettirmoqdalar.

Ustozga so'z

Yaqinda o'tkazilgan Davlat tiliga

bag'ishlangan bayramimizda,

«Ogohlik - davr talabi», «Og'usiz dunyo sari» deb nomlangan tadbirlarimizda kollejimiz talabalari o'z mahoratlarini yana bir bor namoyon qildilar. Endi ular yangi tadbir va uchrashuvlar uchun tayyorgarlikni boshlab yuborishdi. Chunki kollejimizning tadbir va kechalarsiz o'tadigan biror kuni yo'q-da.

Albatta, bu borada matbuotning, ayniqsa, «Tong yulduzi»ning o'rni katta bo'lmoqda. Ustozlarimiz tahririyat binosiga boradilar-da, barcha o'quvchilarni pul o'tkazish yo'li bilan gazetaga obuna qilib qo'yadilar. Shuning uchunmi, ular gazetada e'lon qilinayotgan tanlovlarning faol ishtirokchisi va g'olibi bo'lyaptilar.

Muyassar TO'RAYEVA,

Toshkent Iqtisodiyot kolleji, buxgalteriya hisobi kafedrasini mudiri.



Endi men ham
«Tong yulduzi»ni o'qiyman.



YANGI MAKTAB - YAXSHI MAKTAB!

Men Yunusobod tumanidagi 274-maktabning 8-sinfida tahsil olaman. Maktabimiz juda eski bo'lgani uchun hokimimiz uni qaytadan ta'mirlanishini aytdilar. Hozir biz vaqtincha 122-maktabda o'qiyapmiz.

Sevimli gazetamiz orqali 122-maktab o'qituvchi va o'quvchilariga o'z minnatdorchiligimizni bildirmoqchimiz. Ular noqulayliklarga qaramasdan, bizni xuddi mehmondek kutib olishdi.

Endi sovuq kunlar tushmasdan maktabimiz tezroq bitishini kutaymiz. Bu maktabda ham sharoitlar yaxshi. Lekin, o'z maktabing bo'lganiga nima yetsin?!

Nigora ABILOVA,

Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Oq-tepa mahallasi.

Assalomu alaykum, hurmatli Umida Abduazimova!

«Tong yulduzi» gazetasi bizning sevimli gazetamiz. Chunki gazeta sahifalarida muhim va qiziqarli maqolalar yoziladi. Biz ham dilimizda saqlanib yotgan fikrlarimizni sizga yozishga jazm qildik. Bizning maktabimizda 1000 dan ziyod o'quvchi tahsil oladi. Umumiy yer maydonining uzunligi 60 m., eni 40 m. Unda 17 ta sinf va 5 ta qo'shimcha xonalar bor. Maktab binosi 1936-yilda xom g'ishtdan qurilgan. Hovlisida basketbol va volleybol maydonchalari qurilgan. Shuning uchun deraza oynalari to'p tegib tez-tez sinib turadi. Sport zali, majlislar zalini faqat orzu qilamiz. Diqqat qiling, maktabda 33 ta sinf bo'lib, o'quvchilar ikki smenada o'qishadi. Maktab darvozasi bilan katta magistral yo'lining oralig'i atigi 5 metr. Qorovulxona qurish uchun esa joy yo'q. Hovlida bolalar erkin yura olmaydilar. Biz ham yangi zamonaviy maktabda o'qishimiz uchun aslida imkoniyat bor. Maktabimiz yaqinida E. L. U. tashkiloti mavjud. Uning yer maydoni kamida 20 gektar

bo'lib maydonning bir chetida «Kengping» qurilgan. Uning yer maydoni 5-6 gektar. Lekin «Kenping» ishlatilmaydi.

Muharrirga maktub

Oqibatda undagi qurilish materiallari birovlar tomonidan o'g'irlanib talon-taroj qilinayapti. Hatto pishiq g'ishtlarigacha yo'q bo'lib ketyapti. Agar shu bino yer maydoni bilan maktabga berilsa yaxshi bo'lardi.

Umida opa, «Tong yulduzi»ga xatimizni to'liqligicha yozishingizni so'raymiz. Zora maqsadimizni mutassaddilar anglab, «...kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lish»imiz uchun biz - kelajak avlodga imkoniyat yaratib berishsa.

BIZGA ZAMONAVIY MAKTAB KERAK

hurmat va ehtirom ila

Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on shahridagi
S. Bobomurodov nomli 34-maktabning 1006 nafar
o'quvchilari nomidan:

Dilnoza RAHMATOVA,
Lobar NORMURODOVA.

«TURON»NING YANGI BINOSI QACHON BITADI?

Mana sakkiz oydirki, «Turon» kutubxonasi kitoblari o'quvchiga zor. Bir biriga aralashib, chang bosib yotgan kitoblarga o'quvchi qanchalik muhtojligini aytmasak ham bo'laveradi. «Navoiy» kutubxonasida bo'lgan yong'in tufayli yo'q bo'lib ketgan nodir qo'lyozmalar, respublika miqyosida yagona bo'lgan 20 - yillardagi matbuot asarlarini faqat «Turon» kutubxonasidan topish mumkin edi. Afsuski, bu kutubxona hozirda ishlamayotganligi sababli 400 mingdan ziyod nodir kitoblarni o'quvchilar saroyida saqlanmoqda. Kitoblar, matbuot nashrlarini o'qish ilinjida «Turon»ning «yangi» binosini izlab kelayotgan o'quvchilarni ko'rib yuragingiz achiydi. Ular orasida

nuroniylar, otaxonlar, fan nomzodlari, mashhur adabiyot tanqidchilari, talabalar, maktab o'quvchilarini uchratishingiz mumkin.

Aziz uka va singillarim, ertaga siz ham talaba bo'lasiz va albatta oliygoh kutubxonasida mavjud bo'lmagan kitoblarni qidirib, kutubxonaga yugurishingiz tabiiy. Izlagan kitobingiz bo'la turib, undan foydalana olmasangiz, qanday ahvolga tushasiz? Aytсам tilim, atmasam dilim kuyadi. Kundan kun chiroyli binolarning safi kengayib bormoqda-yu, ammo kutubxona uchun quriladigan binoning bitishi qiyin bo'lyapti-da.

Munajat SADRIDDINOVA.

ZIYO MASKANIMIZDA

Buxoro viloyati, G'ijduvon 19945 donani tashkil etadi.

bahramand kitubxonachi tez turli qiziqarli

Sharipov, Dinara

kitobxon o'quvchilar hamisha

2005 - «Sihat-salamatlik yili»ga

adabiy kechalar yig'ilganlarda katta

D.Ro'ziyeva, G.Qodirova, D.Mo'minova

o'z kasblariga fidoiyligi bois, ushbu ziyo maskanidagi

kitobxonlar soni kun sayin ko'paymoqda.



tumanidagi 1-sonli bolalar kutubxonasining kitob fondi Ushbu ziyo maskanidan 2255 nafardan ziyod kitobxonlar bo'lishmoqda. Kitobsevar bolajonlarga so'zi shirin opalari beminnat xizmat ko'rsatishayapti. Bu yerda tez-tadbirlar o'tkazilib turiladi. Ushbu tadbirlarda Behruz Muxtorova, Diyora Majidova, Mavzuna Qorayeva kabi faol ishtirok etib kelishmoqda. «Navoiy qalbimizda», bag'ishlangan «Sog'liging - boyliging» deb nomlangan taassurot qoldirdi. So'zi bilan ishi bir M.Boltayeva, fidoiyligi bois, ushbu ziyo maskanidagi

Nodira MIRZAYEVA.

«Istiqlol umidlari». Bu nom sizga yaxshi tanish-a, aziz tengdoshim? Ha, ha, xuddi o'zi, «Tong yulduzi» gazetasi qoshida faoliyat ko'rsatayotgan yosh qalamkashlar to'garagining nomi shunday.

Men ham mana uch yildirki, ana shu to'garak a'zosiman. To'g'risini aytsam, avvallari hatto maqola bilan xabarning ham farqiga bormasdim.

Hozir esa qalamim ancha

Jalilovanning maslahatlari

To'garak mashg'ulotlarimiz

o'tadi. An'anamizga ko'ra biz

bolalar

qolgudek bo'lsa, bir

mashg'ulotimizning

sezmay ham qolamiz.

Ko'p ezmalik

a? To'garagimizning

federatsiyasi raisi Nurxon aka NAFASOV bilan uchrashuv

o'tkazamiz. Menimcha, orangizda sportning katara turiga

qiziqmaydigan o'g'il-qizlar juda kam bo'lsa kerak.

Agar bu inson bilan uchrashishni, uning bolalik xotiralari haqidagi hikoyalarini tinglashni istasangiz, dushanba

kuni sizni kutamiz.

Manzilimizni yana bir bor eslatib o'tmoqchiman:

Toshkent shahar, Navoiy ko'chasi, 30 - uyda joylashgan binoning 4 - qavati. «Tong yulduzi» tahririyati.

TO'GARAGIMIZGA

NURXON NAFASOV KELADI

«charxlanib» qolgan. Ustozimiz Feruza opa

asosida bilmaganlarimni bilib boryapman.

Juda qiziqarli, bahs va munozaralarga boy

bilan uchrashish uchun biron bir

yo'zuvchisimi, shoirimi kelib

soat davom etadigan

2-3 soatlab cho'zilib ketganini

qilmay, maqsadga o'tib qo'yaqolay-

navbatdagi mashg'lotida, ya'ni, 14 - noyabr kuni O'zbekiston karate

o'tkazamiz. Menimcha, orangizda sportning katara turiga

qiziqmaydigan o'g'il-qizlar juda kam bo'lsa kerak.

Agar bu inson bilan uchrashishni, uning bolalik xotiralari haqidagi hikoyalarini tinglashni istasangiz, dushanba

kuni sizni kutamiz.

Manzilimizni yana bir bor eslatib o'tmoqchiman:

Toshkent shahar, Navoiy ko'chasi, 30 - uyda joylashgan binoning 4 - qavati. «Tong yulduzi» tahririyati.

Barno ISABOYEVA,

Matbaa kasb-hunar kolleji talabasi.

ARMON QILIB QOLMAYLIK

Hozirgi kunda deyarli har qadamda «Internet» degan yozuvlarga duch kelamiz. Tabiiyki, u yerda ko'proq yoshlar bo'lishadi. Bu yoshlarning ba'zilar bilimlarini boyitayotgan bo'lishsa, ba'zilar turli jangari o'yinlarni o'ynab o'tirishibdi. Bir birini otib, chopib o'ldirayotgan odamchalar. Ularning uzilib-ketgan



kesilib

oyog'u

kallalarini

ko'rib,

kishining

hushi

boshidan

uchishi

tayin. Bir

mamlakatda bolalarni

ataylab beshafqat bo'lishlari uchun

mana shunday filmlarni ko'rsatishlari haqida

o'qigandim. Bugun kompyuterda odam

o'ldirib, maydalayotgan bolalardan ertaga

qanday kelajak kutamiz? Bunday qonli

urushlar bolalarning ruhiyatiga qanday ta'sir

qilarkin? Bu savollarga qayerdan javob

topamiz? Hozir ana shu yoshlarning

kelajagini yaratish vaqti emasmi? Internetda

chet ellar bilan bog'lanib, bilimni

oshirayotgan o'quvchilar ham bor. Bu

bolalar nega ulardan o'rnak olmaydilar?

Xullas, oxirgi xulosani o'zingiz chiqaring.

Faqat bemavrid o'tkazgan vaqtingizga keyin

achinib yurmasangiz bas.

Dilnoza NAZRULLAYEVA.



Viloyatimizdagi «Xalq so'zi» ijodkorlar uyida O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda asosan yoshlar qatnashdi. Taniqli telejurnalist Sohijon Alijonov, shoira Enaxon Sidiqovalar hamrohligida kelgan Iqbol Mirzo o'ziga berilgan yuksak unvonni butun bag'dodliklarnikidir, dedi.

HALQ SHOIRI TUMANIMIZDA

—Chunki men shu tumanda ulg'aydim, qo'shiqqa aylangan she'rlarim ham shu xalqimdan olingan satrlardir.


Ha, xalq shoiri xalq dilidagini tiliga ko'chirsa yurakka tushadi, ko'ngillarga zavq ulashib, e'zoz topadi.

Samimiy satrlari, xalqona kuylanayotgan

qo'shiqlari uchun shu kuni Iqbol

Mirzoga rahmatlar aytdik.

O'g'iloy MADAMINOVA,



O'SHXONAMIZ ISTIQA OCHAR

Men Andijon viloyati, Ulug'nor tumanidagi 16-ixtisoslashgan maktabning 9-«A» sinfida o'qiyman. Yangi o'quv yili boshlangan davrda bu yerni tanimay qolibman. Chunki internatimizning sinf xonalari zamonaviy jihozlar bilan to'ldirilgan, hamma yoq top-toza edi. Hammadan ham hayron qoldirgani oshxonamizning bezatilishi bo'ldi. Bu yerdagi oshxona idishlari, anjomlarining hammasi yangilangan. Ayniqsa, oshpazlarimiz M.Mirzarahimov, J. Yunusovalarning tayyorlagan taniqli taomlari barchaga ma'qul bo'lmoqda. Fursatdan foydalanib, oshpazlarimiz va maktab-internat rahbarlariga o'quvchilar nomidan minnatdorchilik bildirmoqchiman.

Mahliyo ZOKIROVA.



ERTAK

ERTAK YAZAMIZ



tasvixonasi "Tong yulduzi"

Aziz bolajonlar, orangizda ertak o'qishni yoqtirmaydiganlar topilmasa kerak-a? U bo'sh vaqtigingizni mazmunli o'lkazibgina qolmay, sizni o'zining sirli, sehrli olamiga yetaklaydi. Lug'atingizni boyitib, tasavvuringizni kengaytiradi. Qoraqalpog'istonlik tengdoshingiz Shirin Xo, jayevaning ham eng sevimli mashg'uloti - ertak o'qish ekan. Qo'lingizdagi mana bu mitti kitobchamizni uning maktubi turki bo'lib, sizlardan kelgan ertaklar asosida sahifaladik.

Umid qilamizki, u kutubxonangizdagi lotin alifbosida chop etilgan kitoblar qatoridan munosib o'rin oladi.

Sizlardan ham ertak va hikoyalar kutubxonamiz. Mazmunli, qiziqarli yozilgan ertaklaringiz «Tong yulduzi» kutubxonasi» seriyasida chop etiladigan navbatdagi kitobchamiz sahifasidan joy olishiga so'z beramiz.

Tong yulduzi "2005-yil"

ham olamdan o'tibdi...

Hayratdan og'zim ochilib qoldi. Nahotki eshitganlarim haqiqat bo'lsa?

Buvim og'ir xo'rsinib, uyga kirib ketdilar. Men esa hamon o'zimga kelolmasdim. Shu voqea sabab bo'ldi-yu, nonga munosabatim butunlay o'zgardi. Ushog'ini ham ko'zimga surtagan bo'lib qoldim.

Madina SAIDMURODOVA,
Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi
5-ixtisoslashtirilgan maktabning 9 - sinf
o'quvchisi.

28170,9 MIM

Jismoniy tarbiya darsida 4 «A» hamda 4 «B» sinf o'quvchilari o'zaro musobaqalashishardi. Yugurish bahsida har ikki sinfning eng chaqqon, epechil qizlari - Nasiba va Nigora bellashadigan bo'lishdi.

Yugurishga start berildi. Avvaliga ular babbaravar yugurishdi. Keyin esa Nasiba raqibini ancha ortda qoldirib ketdi. Kutilmaganda Nigora

9

qarindoshlari yo'ligi sababli uni hech kim o'z qaramog'iga olmabdi. Shunda uy-joyi, otasidan qolgan mol-mulkining bari unga meros bo'lishini eshitgan Tolib aka ismli qo'shnisi qizchani boqib olishga qaror qilibdi. Tolib akaning rafiqasi Gulnora opa avvaliga rozi bo'lmabdi. Ammo mol-mulkning daragini eshitib, darhol ko'nbidi. Bu xonadonga kirib kelishi bilanoq, Donoxonning hayoti do'zaxga aylanibdi. Gulnora opa uydagi barcha og'ir yumushlarni uning zimmasiga yuklab qo'yibdi. Yoshlik qilib, buyurilgan vazifani bajara olmasa, beayov kaltaklar, kuniga bir burdagina non berarkan.

Ularning Donoxon tengi Zarina ismli qiz bor edi. Zarina Dononi yaxshi ko'rar, unga juda rahmi kelar ekan.

Yur Dono, ko'chada o'ynab kelamiz,-debdi bir kuni Zarina yetaklab.



52

-Dunyoda eng keskir narsa nima? -so'rabdi jonivorlardan.

-Til, -deb javob beribdi Nor tuya ko'prikdan bexavotir o'tib



22

BILIM VA AQL BILAN

Qadimda hayvonlar saltanatida bir vodiy bo'lgan ekan. Vodiya qo'y va tuyalar ahil-inoq kun kechirisharkan. Kunlardan bir kuni vodiya bo'ri orolabdi. Tuya va qo'ylar kengashib, ikki do'st -Nor tuya va Qo'chgorni yordam so'rab qiro'l Sherning oldiga yuborishibdi. Yo'llaridan kattakon darvo chiqibdi. Uning ustidagi torgina ko'priki Ilon qo'riqlar ekan. Uning savoliga

erkasiga aylandi.

Azizabonu SODIQOVA,
Toshkent shahri, Yakkasaray tumanidagi
73 - maktabning 5 - sinf o'quvchisi.

O'G'RI QARG'A

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qalin o'rmonda bir Quyon yashagan ekan. Bir kuni uning

qirg'ish chizig'i



uzzakun izz'ib yurarkan, hayvonlarni aldab, kun ko'rarkan.

Shunday kunlarning birida jajjigina bir quyunchani uchratib qolibdi.


-Salom kichikintoy, yo'l bo'lsin?-gapga solibdi uni Tulkiwoy.

-O'vijonimni izlab ketyapman. Ular menga sabzi olib kelish uchun ketganlar.

-O'ying mening galin dugonam bo'ladi. Hozir uni yo'lida uchratib qoldim. U seni zerkitmay, savr qildirib kelishimni iltimos qildi, -debdi Tulki muloyimlik bilan.


-Voy, qanday yaxshi xolajon, -xursand bo'libdi quyuncha.

Ayyor Tulki quyunchani paqos tushirish ilinjida panaroq joyga boshlabdi. Qarasa, katta bir xarsang tosh



14

Bu ibratdan nodon boy, Ko'zlari ochilibdi. Va xalqiga ezgulik, Qilishga shoshilibdi.



17


olib, uy vazifasini ko'chirib oladi-da, yana sezdirmay joyiga solib qo'yadi...

O'zining o'ta bilimdonligiga yana bir karra amin bo'lib, ko'chaga o'ynagani chiqib ketibdi...

Ertasi kuni maktabga ancha barvaqt kelgan G'olibjon rejasini amalga oshirish uchun qulay fursat kuta boshlabdi. Do'sti Tolibjon papkasini partaga qo'yib, tashqariga chiqib ketishi bilan G'olibjon uning daftari olibdi-da, shosha-pisha ko'chira boshlabdi. Daftarni joyiga solib, hech gap bo'lmagandek, tashqariga chiqib ketibdi.

Matematika darsi boshlanibdi. Zamira opa bima-bir uy vazifasini tekshira boshlabdi.

Tolibjon Qarasa, G'olibjon bilan i k k i yechgan masala xuddi b i r i g a tomchi suvdek bir o'xshashmish. H a t t o n o t o'g'ri y o z i b q o'yilgani u c h u n q a v s g a olingan xato ham bir



29

18

–Har birimizning o'z qobiliyatimiz bor, sen osmondan" tushmay.

–Kel, poyga o'ynaymiz,-debdi Ot hamon

Xachir kamtarlik bilan.

–Ha, endi biz shunday yaratilganmizda,-debdi

shamoldek uchsang bo'lmaydimi?,-debdi.

Yuragingda o'ting bormi, menga o'xshab

–Ha, oshna, namuncha imillaysan?

ko'z-ko'zlab maqtana ketibdi.

uchrashib qolishibdi. Ot o'zining chopqirligini

Bir kuni Ot bilan Xachir keng maydonda

OT BILAN XACHIR SUHBATI

29 - maktabning 9 - "A" sinf o'quvchisi.

Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi

Ma'fura JAMOLIDDINOVA,

"Har kim ekanin o'rar".

Bejizga aytilmagan:

Kimki ne qilsa ko'rar.

Qissadan hissa shuki,

BO'RINING QULI

Qalin o'rmonda bir Tulki o'zidan kuchli hayvonlardan qo'riqib, berkinib hayot kechirarkan.

Ulariga duch kelganida doimo xushomad qilarkan.

Bunday hayot kechirish joniga tekkari Tulki

kunlarning birida Ayiqni uchratib qolibdi. U bilan

do'stlashish, shu yo'l bilan boshqa hayvonlar

oldida o'z mavqeini ko'tarib olish niyatida

qo'ldagi yukini ko'tarishib, makonigacha kuzatib

qo'yimogchi bo'libdi. Polvonning yonida

ketayotganidan mag'rurlanib, yo'lda uchragan

Bo'ri'ga salom ham bermay o'tib ketibdi. Buni

fahmlagan Bo'ri Ayiqpolvonning yoniga kelib,

qulog'iga allanimalar deb shivirlabdi...

Uzoq yo'l yurib, Ayiqning iniga yetib kelishibdi.

Yukining og'irligidan charchab-horagan Tulki o'z

maqsadini ayitish uchun endigina og'iz jutilagan

ekan. Ayiqpolvon: «Tulkivoy, boraqol, sen

Bo'rining quli ekansan. Tezroq huzurimga

jo'natib yuboring, degandi», deya uni ortiga

qaytarib yuboribdi.

Qissadan hissa shuki, o'zining nufuzi birov

uchun hech qachon soyabon bo'lolmaydi.

Abdulla Ahmad MUHAMMADALI.

2

13

Momiq dumli bu tulki yemish topish ilinjida

Bir qor ekan, bir yo'riq ekan, qadim zamonda

bir ayyor tulki yashar ekan.

TULKI BILAN QUYONCHA

o'quvchisi.

S. Ayniy nomli maktabning 7 - sinf

Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi

Ozoda XUDOYNAZAROVA,

nomi ohu deb atala boshlagan ekan.

deb yuboribdi. Shu voqea sabab bu jonivorning

ko'zlarini eslatib yuboribdi va u beixtiyor "Ohu"

Jonivorning ko'zlarini yigitga sevgilisi Tilimoyning

yaltirab turgan bir jonivorni ko'rishibdi.

o'mida nozik navniholdek, shoxlari quyosh nurida

qarshisida sharmanda qilish ekan. Lekin qizning

yigitini boshlab kelibdi. Maqsadi - uni yigit

ham yordamingni darig' tutma", debdi.

Mendan

o'zing barchaga birdek mehribonsan.

Xudoga iltijo qila boshlabdi: "Ey, qodir Ollohim,

qidir boshlabdi. Axtara-axtara holdan toygach,

qirg'ish chizig'i



qoshlarini chimirib, o'ygatoldilar.

– H o z i r

senga bir

vogani so'zlab

beraman, xulosani

esa o'zing

chigaraver.

...Urush yillari

edi. Qahraton

sovuq, ocharchilik

hukm surardi.

Urushga ketgan eridan

goraxat olgan bir ayol qizchasi

bilan yolg'iz qolibdi. Qiyinchilik bilan kun

ko'rayotgan ayolning qizchasiga berishga hech

vagosi qolmabdi. Go'dagi ochlikdan yig'lay

boshlabdi. Bechora ona qizini uch kun aldab,

chalqitibdi. To'rinci kuni esa ona ko'z oldida

ochlikdan nobud bo'layotgan farzandining

azoblanishiga toqat qilolmay, uni tegirmon

naviga ijarib yuboribdi. Oradan bir kun o'tib, o'zi



5

10

Tipatikan

asal beribdi,

ekanal: Ayiqpolvon

topshirayotgan

sovg'alarini

h a m a

Quyonnikiga yetib borganida

ahd qilibdi.

Shularni o'ylab, sovg'asiz bo'lsa ham borishga

kuniga taklif qildi-ku. Bormasa, xafa bo'ladi.

qolibdi: Axir Quyon uni hurmat qilib, tug'ilgan

bormaslikka qaror qilibdi. Keyin esa o'ylanib

Avvaliga rosa xafa bo'lib, mehmonga ham

tashqariga chiqib qarasa, sovg'asi yo'q emish.

Yasan-tusanni joyiga qo'ygan Olmaxon

Quyonnikiga oshiqibdi.

foydalangan Qarg'a uning sovg'asini o'g'irlab,

esla kiyinish uchun iniga kirib ketibdi. Paytdan

hojirlabdi. O'rmon yong'og'laridan terib, savatga

hoyvonlarni uyiga taklif qilibdi.

tug'ilgan kuni bo'libdi va o'rmondagi barcha

hayvonlarni uyiga taklif qilibdi.

–Hoy, yetimcha yetti kulcha, senga yo'l

bo'lsin? Ko'chada o'ynashni ko'tsatib qo'yaman

senga. Undan ko'ra hovliarni supur, mana bu

kiylan yuv!-deya silalab tashlabdi uni Gulnora

opa.

Shunday kunlarning birida gorni to'yib ovqat

yemagan, og'ir mehnatdan sillasi qurigan

Donoxon qattiq betob bo'lib qolibdi. «Zora shu

dard qizchani olib ketsa. Bahonada yetimchadan

ham qutulardim. Mol-mulki esa o'z-o'zidan

mening nomimga o'tib qolardi», degan o'yda

Gulnora opa na shifokor chaqiribdi, na biror dori-

darnon beribdi. Donoxonning ahvoli esa kundand-

kunga og'irlashib boraveribdi.

Bir kuni ulamkiga qo'shni Sora xola chiqib qolibdi.

Donoxonning ahvolini ko'rib, qo'riqib ketibdi.

–Gulnora, qizchani ahvoli og'ir-ku,

do'xir-po'xirga ko'rsadinglarni?,-debdi.

–Voy, nimasini ayasiz, ko'rsatmagan

do'xirimiz, bermagan dori-darnonimiz

qolmadi,-debdi Gulnora opa tiyyog'lamaik qilib.

–Qizalog'imning ahvolini ko'rib o'zim ham

siqilib keiyapman...

26

12

200 - Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi

Muhammad Yusuf ANORBOYEV,

sergaplarning oxiri voy.

Qissadan hissa shuki, maqtancholik,

payqamay o'tib ketishibdi.

Kaklikni esa ovozi ham chiqmagani uchun

palovga bosishibdi.

ovchilar uni tutib olib,

ovozini eshitib olgan

tugata olmabdi:

Bedana gapini

yuborgan.

deya qo'yib

yarashadi,

kengliklarga

po'ysiz

qafasga emas,

qush

Chiroyli sayrashim shohga ma'bul bo'lib, bunday

hatto shohning saroyiga ham olib borishgan.

Meni

ilab qo'yib, ovozinmi minirib tinglashadi. Meni

–Ajoyib ovozim borligi uchun meni insonlar



LAYIB ANINHISI IL'ANIB

Yaqin o'tgan zamonda, Bo'lakrabot tomonda G'olibjon ismli bir bola yashar ekan.

G'olibjon o'zi juda yaxshi bola ekan. Maktabda ham faqat a'lo baholarga o'qirgan. Lekin birgina kamchiligi bor ekan. U o'zini hammadan bilimdonroq tutarkan, biroz maqtancholigini ham yo'q emas ekan. Uning Tolibjon ismli doimo birga yuradigan, bir partada o'tiradigan qalin do'sti bor ekan. Bir kuni bu ikki do'sting orasidan qora mushuk o'tib qolibdi.

Shu kuni matematika darsidan ustoz Zamira opa murakkabroq topshiriq berib qolibdi. G'olibjon har qancha urinmasin, masalani yecholmabdi. Opasi Setoradan ko'mak so'ragan ekan, bir kun avval buyurgan yumushini bajarmagani uchun qattiq ranjibdimi, xullas, yordam bermabdi. Do'stidan so'ray desa, birinchi bo'lib gapirishga bo'yni yor bermabdi. Shunda uning miyasiga ajoyib bir fikr kelibdi: ertaga tanaffus chog'ida do'sting papkasiidan daftarini

82


QOVQOV NOK BILAN QOVQOV

Bir hovlida Nok bilan Qovqov yonma-yon yashar ekanlar. Bir kuni ular bahslashib qolishibdi. Qovqov Nokka:

—Eh, Nokvov, gavdangni qara, bo'ying osmonga yetay deydi—ya. Mevalaring esa juda mayda. Bundan uyalmaysanmi?—debdi. —Meni qara, yerdan ko'tarilmagan bo'lsam-da, mevalarimni odamlar bazo'r ko'tarishadi.

Nok biroz muddat o'ylanib turibdi-da, shunday javob beribdi:

—Buning bir necha sabablari bor: birinchidan, sen kabi katta-katta meva tugsam-u u biror kimsaning boshiga tushib ketsa, boshini yoritishi aniq. Ikkinchidan, soyamda yo'lovchilar miriqib dam olishadi. Uchinchidan, mevam mayda bo'lsa ham senikidan mazaliroq.



3

NON QADRI

Senga o'xshab mazaliroq bo'lishi uchun shakar sepib, pishirishmaydi, —debdi. Uning javobidan lol qolgan Qovqovvov kattakon boshini qashlab qolibdi.

Lola **TURDIBOYEVA**,
Toshkent viloyati, Parkent tumani, Shampan qishlog'idagi 18 - o'rta maktab o'quvchisi.

Yozgi ta'til kunlarimni asosan buvimnikida o'tkazaman. Bu yil ham shunday bo'ldi. Tushlikdan so'ng hovlida buvim bilan suhbatlashib o'tirgandik. Hovli burchagidagi tandir yonida turgan bir savat qotgan nonlarga ko'zim tushib qoldi.

—Buvijon, anavi qotgan nonlarni nima qilasizlar?—so'radim hayron bo'lib. —Ularni yeb bo'lmaydi—ku, tashlab yubormaysizlarmi?..

—Nega kerakmas bo'larkan? Nonni ham tashlab bo'ladimi, unday dema bolam,—dedilar buvim biroz ranjigan ohangda.

So'zgra, So'allanimalarni xotirlagandek,

4

Gulnora opa shunday deya choy olib kelish uchun tashqariga chiqib ketibdi.

—Oyim aldayaptilar, Dononi hech qanday do'xtir ko'rgani yo'q. Dori ham ichirmadilar,—debdi Zarina Sora opaning qulog'iga shivirlab. Sora opa yugurgancha uyiga chiqib ketibdi. Oradan biroz vaqt o'tgach dorivor g'iyohlardan tayyorlangan allaqanday damlama olib chiqib, qizchaga ichiribdi. Gulnora opaga ko'rsatmay, issiq ovqat yediribdi. Donoxon tez orada oyoqqa turib ketibdi.

Dunyoning ishlarini qarangki, bir kuni ularning yakka-yu yagona qizlari Zarina ham betob bo'lib qolibdi. Uni olib bormagan kasalxonalar, ko'rsatmagan tabib-u shifokorlari qolmabdi. Lekin hech kim qizchani dardiga davo topa olmabdi. Zarina bevaqt olamdan o'tibdi. Qizining jonsiz tanasini qochoqlagancha dod solayotgan Gulnora opaning yoxayayolidan Donoxon betob bo'lib yotganda aytdi: "Yolg'on gaplari nari ketmasdi..."

Shu kuni Donoxon ham bu oilani tark etibdi. Ilitimosiga ko'ra uni Sora xola farzandlikka olibdi.

Nurjahan **BOBOQULOVA**,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 53 - maktabning 6 - sinf o'quvchisi.

12

birinchi bo'lib yetib kelibdi. Maqtanchiq Ot "Yaxshi Ot keyin chopadi" degan maqolni eshimagani ekan chog'i.

Muhammadusuf **ANORBOYEV**,
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 200 - maktabning 5 - "T" sinf o'quvchisi.

MAQTANCHIQ BEDANA

Bir kuni Bedana quyug' o'tloqda Kaklikni uchratib qolibdi.

—Salom oshna, muncha xomushsan?—so'rabdi undan.

—Ovozim senikidek yoqimtoy emas. Shuning uchun ham odamlar meni tutib yeyishadi. Doimo berkinib yurishimga to'g'ri kelgani uchun ham xafa bo'lib ketaman-da,—javob beribdi Kaklik.

—Isasang senga ham sayrashni o'rgataman,—debdi mehribonlik bilan Bedana.

—Isaganda qandoq?—quvonib ketibdi Kaklik...

Ular yo'lga tushishibdi. Bedana sayrashni o'rgatish o'rniiga og'zini ko'pirtirib maqtanishga tushib ketibdi:

20

OHUNING NOMI NEGA OHU?

OHU?

Qadim o'tgan zamonda Turkiston degan zaminda Bog'i Eramdek bir so'lim go'sha bo'lgan ekan. Shu zaminda ahli-inoq dugonalar yashab o'tgan ekan. Biringi ismi Gulsinoy, ikkinchisinki Tilsimoy ekan. Ularning inoqliklariga hammaning havasi kelarkan. Ammo Gulsinoyning dugonasi Tilsimoyga nisbatan hasadi bor ekan.

Buni qarangki, ikki dugona bir yigitga ko'ngil qo'yishibdi. Yigit esa ulardan birini — ismi jisimga monand, oy deganda oy kabi, kun deganda kun kabi yashnagan hurday, tishlari durday Tilsimoyni yoqtirar ekan. Dugonasi sevgisiga hasad qilgan Gulsinoy ularni bir birlaridan judo qilmog'chi bo'libdi va hiyla ishlatishga ahd qilibdi.

Bir kuni Tilsimoyni daryo sari boshlabdi. U cho'mliayotgan mahal sezdimay kiyimlarini yashirib qo'yibdi. O'zi esa, Tilsimoy, tezroq suvdan chiq, podachilar kelishyapti, deya shoshiribdi. Tilsimoy suvdan chiqib, kiyimlarini

12

qirg'ish chizig'i



olima, Sichqonvoy esa boshqoq sovg'a qilibdi. Navbat Qarg'aga kelibdi. U ham Quyvonvoyga atalgan liq gaplarini gapirib, kattagina savatchada yong'oq sovg'a qilibdi. Shunda Olmaxon o'z sovg'asini tanib qolibdi. Boshqa hayvonlar ham savatcha Olmaxonga tegishli ekanligini yaxshi bilishsa-da, Qarg'ani sinash uchun indamay turishibdi.

Olmaxonning gaplari Qarg'ani dovdiratib qo'yibdi. Chunki u Olmaxon sovg'asiz kelmaydi, deb o'ylagan ekan-da. Uyatdan qop-qora yuzlari qizarib ketibdi. Qilmishiga pushaymon bo'lib, kechirim so'rabdi.

—Mayli, bir gal seni kechirdim. Chunki aybni tan olish ham mardlik-da. Sovg'a o'zimga, deb turib olsang nima qilardim,—debdi Olmaxon.

Shu-shu Qarg'avo'y bironing narsasiga ko'zini olaytirmaydigan bo'libdi. Lekin yong'oq o'g'irlaydigan odati hali ham qolmabdi. Bu "kasallik" unga yo'lg'akda tekkani bo'lsa kerak-da.

Notira **ALIBOYEVA**,
Toshkent viloyati, Bo'ka tumanidagi 53 - maktabning 6 - sinf o'quvchisi.

11

Saudiya Arabistonining Milliy kuni va iyd - Ramazon munosabati bilan poytaxtimizning «Interkontinental» mehmonxonasining «Olmos» majlislar zalida Saudiya Arabistoni podshohlighining O'zbekistondagi vaqtinchalik ishonchli vakili Abdurahmon bin Abdul Aziz Abanmay janoblari jurnalistlarga matbuot anjumani o'tkazdi.



muqaddas masjid xodimi Podshoh Abdulloh bin Abdulaziz Os Saud va u kishining birodari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Islom Karimov janobi

oliylarining ikki tomonlama aloqalarni mamlakatlar va birodar xalqlar manfaatlariga xizmat qilishi uchun ko'rsatayotgan fazl va inoyatlari ostida amalga oshmoqda.

– E'tiborga muhtoj bolalar taqdiri sizlarda qanday qilinadi?

Iyd - Ramazon tilaklari

o'quv markazlari faoliyat olib bormoqda. Yana yoshlar uchun beshita kasb-hunar bilim yurtlari mavjud. Hukumatimiz e'tiborga muhtoj oilalar va nogiron bolalar uchun 52.29 million AQSH dollari ajratgan (1995-yil).

– Ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarga batafsil to'xtalsangiz.

– Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy

erkaklardek teng huquqqa ega. Bugungi kunda ko'plab tajribali shifokorlar, malakali o'qituvchilar, hukumat xizmatchilari, ijtimoiy soha mutaxassislari, yozuvchi, jurnalistlarni tashkil qiladigan ayollar nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosdagi cho'qqilarni zabt etmoqda. Ulardan doktor Samira Islom, doktor Vafo Fakix, Hayot Sandi xonim, doktor Silva Al-Xizalarni misol tariqasida aytishim mumkin.

– Shu yil Ar-Riyodda terrorizmga qarshi kurash bo'yicha xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi.

– Darhaqiqat, mening yurtim sobit mavqei va milliy qadriyatlariga asoslanib, xalqaro hamjamiyatning terrorizmga qarshi kurashda o'zining salmoqli hissasini qo'shmoqda. Ushbu konferensiyada bu mudhish xatarni bartaraf etish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadida turli mamlakat va tashkilot vakillari, shu jumladan, O'zbekiston hukumati vakillari ham ishtirok etdi. Tinchlik va barqarorlik qaror topishi uchun turli tomonlarning birgalikdagi yanada ko'proq sa'y-harakatlariga umid qilamiz. Alloh Taborak va Taolodan barchamizga tavfiq berib, turli bala-qazolardan asrashini so'rab qolamiz.

Assalomu alaykum va rahmatullohi barokatuh!

– Muhtaram xonimlar va janoblar! Barchamizga kirib kelgan iyd-Ramazon muborak bo'lsin. Bu oy fazilatlar, barokatlar va hosiyatlarga boy bo'ladi. Qalblar yorishadi, ruh poklanadi, ko'zlar ezgulikka qadaladi, deb suhbatni boshladi elchi janoblari. – Saudiya Arabistoni va O'zbekiston o'rtasidagi turli sohalaridagi aloqalar hozirda yanada rivojlanmoqda. Bunga Saudiya va O'zbekiston hukumatlararo qo'shma komissiyasining ikkinchi yig'ilishini va

hukumatlar o'rtasidagi siyosiy maslahatlar memorandumining imzolanishini hamda o'zaro investitsiyalarni himoyalash va rag'batlantirish bo'yicha bo'lib o'tgan birinchi muzokaralarni misol qilish mumkin. Shuningdek, yaqin kunlarda yana bir qator shartnomalar yuzasidan rasmiy muzokaralar boshlanish arafasida turibdi. Bu shartnomalardan muhimlari: ikki yoqlama soliqlardan voz kechish va havo qatnovi to'g'risidagi shartnomadir. Bularning barchasi Allohning inoyati va Ikki

Saudiya Arabistonida bolalar uchun maxsus markazlar mavjud. Ulardan ba'zilar kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun kerakli sharoitlar yaratish maqsadida xizmat qilsa, yana ba'zilar yetim-yesirlar, nogiron bolalar, jazo muddatini o'tayotgan mahbus bolalar uchun xizmat qiladi. Bu markazlarda bolalarning aqlan va jismonan rivojlanishiga, qobiliyatlarini o'stirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar o'z samarasini bermoqda. Riyod va Taifa shaharlarida nogiron bolalar

aloqalar vazirligida Saudiya kapitali asosidagi yettita kompaniya ro'yxatdan o'tgan. Bundan tashqari, Farg'onada konserva mahsulotlari ishlab chiqaradigan Saudiya-O'zbek qo'shma korxonasi «M.S.FUD Progressing»ni ham aytib o'tishim joiz. Uning investori janob Muhammad Said bo'lib, zavodni eng so'nggi rusumdagi Amerika va Italiya texnika jihozlari bilan yangilagan. Bugungi kunda 647 ish o'ringa ega zavod kuniga 70-80 tonna meva va sabzavotlarni qayta ishlab, 20 turdan ortiq konserva va sharbatlar ishlab chiqaradi.

– Saudiya Arabistoni Podshohlighida ayollar o'rni qanday?

– Ayollar barcha sohalarida

Keling, do'stlashamiz!

Men, yosh shveysariyalik Vitus Kastelberg O'zbekiston diyoriga juda qiziqib qoldim. Shuning uchun ham uzoq tarixi va tajribasiga ega bo'lmish bolalar nashri «Tong yulduzi»ga maktub yozishga ahd qildim. Maqsadim, xat orqali o'zbekistonlik bolalar bilan tanishib, jannatmakon yurt haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lish.

- 1) O'zbekiston gazeta va jurnallari,
- 2) Toshkent, Samarqand va Nukusda joylashgan universitetlar manzillari;
- 3) O'zbek futbol klublari to'g'risidagi do'stona maktublaringizni kutaman. Iloji bo'lsa, maktubni nemis tilida yozing. Oldindan minnatdor chiligimni bildiraman.

Vitus CASTELBERG,
Hinterm Bach 34,
CH-7000 CHUR
SWITZERLAND.

TO'PTOSHA BOY BERGAN QIZALOQ

Ha, milliy o'yinlarimizni sevib o'ynovchi qizlar hozir ham bor. Ulardan biri – Farg'ona viloyati, Dang'ara tumanida joylashgan o'quvchisi Farida Umaraliyeva. U maraliyeva o'ynayotib, yutqazib o'zi sababchi, ya'ni chaqqon harakat uyiga chopqillab bitdi. Chumolilarning don-dun tashishlari, yo'lda bir birlariga boshlarini urib ketishlari Faridaning «Hayrat» nomli she'riga turtki bo'lgan bo'lsa, ko'p tanovvul qilgani uchun tomog'ini og'ritgan muzqaymoq boshqa she'riga mavzu bo'ldi. Shunday qilib, Farida Umaraliyeva bir biridan qiziqarli she'rlar yozib, uni kitobchaga jamladi.



«TONG YULDUZI»GA HAR YILI OBUNA BO'LAMIZ, BIROQ, BIR DONA HAM OLMAYMIZ, –

deydi Dang'ara tumani o'quvchilar ijodiyot markazi direktori Oliyaxon opa Otaqulova. Gapimni muammolan boshlaganim bejiz emas.

Markazimizda Farida qizimizdek iqtidorli o'quvchi yoshlar bisyor. 10 yildan buyon rahbarlik qilayotgan markazda 18 yo'nalishli 25 ta to'garak faoliyat olib boradi. Shulardan «Yosh qalamkashlar» to'garagini boshqarayotgan Shahnoza



Dang'ara tumanilik ishtirokchilar 2-o'rinni egalladi. 7-sinf o'quvchisi Alisher Valiyev Gala

konseretni birinchi bo'lib jonli tarzda likopcha bilan ijro etib boshlab berishi qalbimni yanada hayajonga soldi. Bir tuman uchun bu juda yuqori ko'rsatkich, shunday emasmi?



Endi yuqoridagi muammoga kelsak, tumanimizning yuzi bo'lmish iqtidorli yoshlar haqida ushbu gazeta tez-tez maqolalar, ularning she'rlaridan namunalar jo'natib turamiz. Biroq, gazetani vaqtida olmaganimiz achinarli hol. Har yili 40-50 tadan «Tong yulduzi»ga obuna bo'lamiz-u, pochta xizmatchilarining aybiga ko'ra bo'lsa kerak, bittasini bo'lsa ham olmaymiz. Fursatdan foydalaniib, mutasaddi tashkilotlar bolajonlar nashri – «Tong yulduzi» gazetasini o'z o'quvchilariga vaqtida yetib borishini nazorat qilsalar, deymen.

Sahifani Muharrama PIRMATOVA tayyorladi.

Sap-sariq xazon qoplagan boqqa kirdik. Bog' kimsasiz edi. Uzro har xil daraxtlarning yaproqlarini dastalab guldasta jamg'ardi, so'ng guldastalarni tarbiyachisiga, Madina, Dilafro'z, Iroda kabi o'rtoqlariga sovg'a qildi. Albatta ularning birortasi ham bog'da yo'q edi, shu bois chinor-tarbiyachi, boshqa mayda-chuyda daraxtlar «o'rtoqlari» bo'ldi. Bu o'yinda men chetda qoldim, ya'ni, bevosita qatnashmadim. «Bir aktyor teatri» ko'rinishidagi o'yin Uzroni zeriktirdi.

–Keling, «do'kon-do'kon» o'ynaymiz, - deb taklif qildi.

–Bo'pti. Kim sotuvchi bo'ladi?

–O'zim bo'laman, siz xaridor bo'lasiz, - deb turli tuman «mahsulotlar»ni chinor ostidagi xayoliy peshtaxtaga terib qo'ydi.

–Do'konda hamma narsa bor. Siz eshikdan salom berib kiring, - deb turnik tomonni ko'rsatdi.

Aytganini qildim.

– Qanaqa pul berishim kerak: dollarmi, so'mmi? - deb so'radim jo'rtaga.

– Bizda dollar olinmaydi, so'm opkeling.

– So'mim yo'q-ku, endi nima qilaman?

– Oloy bozoriga borib almashtirib keling.

– Bozorga borsam, kerakli narsalarni o'sha yerdan olib qaytaman, do'konga kirmayman.

– Voy, unday bo'lsa, mayli, bering dollarni, o'zim almashtirib beraman. O'zi qancha dollaringiz bor?

– Ikki.

– Iyya, ikkita dollarga

shuncha

g'avg'omi?! Bu pulingizga-chi, ikkita non olib, kabobning hidiga botirib yeb oling.

Darhaqiqat, Uzro o'ylanib qoldi, peshtaxtani titkilab ko'rdi.

– Bizda angur yo'q. Lekin xohlasangiz, uzum beraman, harbuzaning o'rniga qovun ola qoling, yangi kelgan, juda shirin, - deb so'z o'yiniga munosib javob topdi. U «angur»ning uzum ekanini, «harbuza» deb qovunni nazarda tutganimni anglagandi.

– Yana bermaysizmi? Kuchuk, filcha, qo'zichoq, ikkita handalak...

– Handalak qanaqa bo'ladi?-deb so'rab oldi.

– Qovunning

– Bu yer sizga sirk emas, bildingiz!-dedi. –O'zi bor-yo'g'i ikkita pulingiz bor ekan-ku, o'shanga filcha ham olaman deysizmi!

– Nasiyaga bermaysizmi?

– Nasiyaga berilmaydi, «nasiya daftar»ni soliqchilar opketgan.

– «Darakchi»da maqolam chiqdi, kelasi hafta qalam haqi berishadi, «en-en»ni topshirib keldim.

– Bo'lmasam, kelasi haftagacha kuting, ungacha handalak ham kep qoladi. Bor-ing, boshimni qotirmang, xaridorlar kutib qoldi, - deb ko'chani ko'rsatdi.

O'zimni kulgudan arang tiyib, go'yo og'ir yukni ko'tarib ketayotgandek lapanglab ko'chaga yo'l oldim.

– Ayiq polvonga o'xshab lapanglamay to'g'ri yuring, bu yer sizga sirk emas, -deb orqamdan dakki berdi «sotuvchi» Uzro.

Bilishimcha, Uzro do'konga kirganda sotuvchi bilan xaridorlar muomalasini sinchiklab kuzatgan, ayrim noxush voqealarni eslab qolgan edi. Ajabki, u sotuvchining xatti-harakatlarini xuddi Obidjon akasiga o'xshab kalaka qilardi.

Nabijon BOQIY.

Uzro kasb tanlayapti



Hamisha uyg'oq xotira

USTOZ

(Fayzulla To'xtamishov xotirasiga)

Ustoz darsi og'ir sinov,
Amal qilgan o'zingiz.
Yuraklarni titratardi,
Har bir aytgan so'zingiz.
Og'ishmayin necha yoshga,
Ilmu saboq berdingiz.
Ma'rifatning bog'i ichra,
Duru gavhar terdingiz.
Mahallada ne bor yumush,
Osongina bitardi.
Bayramlar-u, ma'rakamiz,
Siz-la fayzli o'tardi.
Men ham sizning ortingizdan,
Borayotgan bir izman.
Nasib bo'lsa ma'rifatning,
Osmonida yulduzman.
Bobo, kitob qoldi demang,
O'z qo'limga olganman.
Aytar so'zim qoldi demang,
Men qalbinga solganman.

Ruxsora TO'XTAMISHEVA,
Samarqand viloyati, Narpay
tumanidagi 30-maktab o'qituvchisi.

BO'SQI O'TIRMAI, BO'SQI QOTIR!



1. Ramning sevgilisi
2. Badan
3. Karate mashqi
4. Avaz(shoir)

5. Sariyog' turi
6. Sabab, asos
7. Ishon
8. Yapon seriali

Tuzuvchi:

Javlon
FARMONOV,
Toshkent shahri.

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi
bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida
ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
Nurxon NAFASOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
022-raqam bilan
2003-yil 11-dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi.
Gazeta

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.
Hajmi A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 13538
Buyurtma N: J 1753

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin
SHAYADGAROV.
Navbatchi:
Ozoda
TURSUNBOYEVA.

Rassom:
Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-38-10
144-63-08

Tel./ faks:
(99871) 144-24-45